

FOTIH DUMAN “MEN” KITOBIDAGI UFTODANING NASIHATLARI

Rahimboyeva Oynura Faxriddin qizi

Kimyo International University in Tashkent

3-kurs talabasi

oynura_rahimboyeva@icloud.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola nafsni biz bilmagan joylarda bo‘lishi va Xudoiy qanday qilib nafsni yengib o‘tganligi aks etgan.*

Kalit so‘zlar: *Nafs, Xudoiy va Uftoda*

Kirish

Fotih Duman (Fatih Duman) - 1987 Turkiyaning Sarkisla tumani Sivas shahrida tug‘ilgan. 2010-yilda Dokuz Eylul Universitetining teologiya fakultetini tamomlagan. U oz muddat Iordan Davlat Universitetida ham taxsil olgan. Dokuz Eylul Universitetida turk-islom yo‘nalishida magistraturani tamomlagan.

Uning maqolalar ko‘plab jurnal, gazetalarda e‘lon qilingan. Uning ba‘zi kitoblari esa teatrlarda sahnalashtirilgan, uning asarlari asosida seriallar suratga olingan.

Hozirda u Nesil nashriyot tashkilotida bosh muharrir lavomida faoliyat olib boradi.

Natija va yechimlar:

“Men” kitobi nafs haqida bayon qilinadi va kitobda shunday yoziladi: “Nafs degan narsa aslo o‘lmaydi. Uni o‘ldirib bo‘lmaydi, uni o‘ldi deb o‘ylagan paytingda birdaniga senga tashlanib qoladi”. Men bu kitobni o‘qib boshlaganimdan keyin Fotih Dumanning “Men” kitobi bilan suhbatlasha boshladim, bu kitob ichimdagilarni o‘qiyotgandek tuyilardi ba‘zan “Ey inson! Sen meni juda yaxshi taniysan, biz har doim birgamiz, lekin sen mening kimligimni bilmaysan! Sen nafas olayotganingda men ham nafas olaman, gapirganingda men ham gapiraman. Hatto sen men bilan gaplashasan ham, lekin kimligimni bilmaysan. Kel, unda men senga o‘zimni tanishtirayin!. Yo tavba, ahvolingga bir qarasang-chi! Buncha ko‘p kulasan? Nega har bir aybingni yuzingdagi tabassum bilan berkitmoqchi bo‘lyapsanmi? Tabassum gunohlarimni o‘chiradi, deb o‘ylayapsanmi?. Axir aybni yopadigan rang, bo‘yoq yo‘qligini bilmayapsanmi?. Bir kun kelib, o‘sha bo‘yoq ham oqib tushadi, qilmishlaring kundek ravshan bo‘ladi. Lekin unda kech bo‘ladi. O‘tgan kunlaringni bir eslab ko‘rgin. Ko‘rgan kechirganlaringni, eshitganlaringni, bilganlaringni,

aytganlaringni, qilmishlaringni, boshqalardan yashirgan ishlaringni eslagin. Hammadan yashirdim deb o‘ylagan xatolaringni.... Esingga tushdimi?. Hali hech kimga oshkor qilmagan, gunohligini bilmasang ham, baribir qilavergan ishlaring haqida o‘ylaysanmi? Birov ko‘rmayapdi deb qilgan gunohlaring esingga tushyaptimi? Yo‘lg‘iz qolganingda, yarim kechasi, kimsa yo‘q deb o‘ylagan paytingda o‘sha gunohlaring bilan yuzlasha olishga yuraging dov beradimi? Qilmishlaring uchun yig‘laysanmi hech? Gunohlaringdan uyalib, ko‘zingga yosh kelganmi o‘zi? Yig‘layapsan... Yig‘layapsan, inson. Yig‘layapsanki, insonsan, insonsanki, yig‘laysan! Lekin sen g‘ofil, ”Yig‘lasam, hammasi o‘tib ketadi”, deb o‘ylayapsan. Yo‘q, yig‘i malham emas, anglash malhamdir! Sen esa anglamayapsan” bu so‘zlar nafsning tilidan gapirilgan. Shu gaplardan keyin esa ish qilayotganimda yokida o‘qishga ketayotganimda hamma joyda meni bir inson kuzatayotgandek tuyiladigan bo‘ldi. Har bir qilayotgan ishimni e‘tibor bilan qiladigan bo‘ldim. Fotih Duman “Men” kitobidagi ko‘pgina voqealarda men judayam ta’sirlandim. Bu voqea esa Xudoyi Savrixisorda bo‘lgan payti Uftodani sog‘ingan paytlari ularni nasihatlarini ko‘p eslardi. “Uftodaning darveshlarni to‘plab olib qiladigan samimiy suhbatlari qanday yaxshi edi”. deb eslar, yana Uftodaning xuzuriga bo‘lib qolishni orzu qilar edi. Masalan, bir kuni Uftoda darveshlarni atrofiga to‘plab, nasihat va go‘zal suhbatlari bilan ularning qalbiga malham surayotgan edi. Keyin birdan “Qani, kelinglar-chi, bolalarim! Bahor ayyomidamiz, qani, har biringiz bog‘dan menga biror gul, chechak olib kelinglar-chi”, deb qoldi. Darveshlar yosh boladek sevina-sevina chechak to‘plashga ketishdi. Xudoyi ham boshqa darveshlar qatori chiqib ketib, bog‘da u yoqdan bu yoqqa aylanib yurdi. Biroz vaqt boshqa darveshlar birin-ketin Uftodaning yoniga kirib kelib, qo‘llaridagi chechaklarni unga taqdim qilishdi. Bursaning qanday chiroyli, turfa xil rangli, xushbo‘y, iforli gullari bor-a! Xudoiy boshqa darveshlar olib kelgan gullarni ko‘rgach, o‘zi olib kelgan gulga qarab, uyalib ketdi. Chunki u olib kelgan gul allaqachon qurib, sarg‘ayib bo‘lgan edi. Ammo shunday bo‘lsa ham, gulni Uftodaga berdi. Uftoda qo‘lidagi qurigan gulga qarab, Xudoiyga dedi:

-Bolam! Qara, hamma yangi, rango-rang gullar terib keldi. Sen nima uchun bu sarg‘aygan, qurib ketgan gulni olib kelding? Xudoiy ikkala yuzi qizarib, hijolatda qolgan bo‘lsa ham,ustoziga odob bilan dedi:

-Xazratim, qaysi bir gulni uzib olmoqchi bo‘lsam o‘z tilida Allohni zikr qilayotganini ko‘rdim. Uzib olib, ularni Allohning zikridan to‘sgim kelmadi. Shuning uchun mana shu qurib, sarg‘aygan chechakni olib keldim. Bu chechak o‘lib bo‘lgan, zikri ham to‘xtagan edi. Xudoiy o‘zining bu javobi bilan darveshlarni ham hayron qoldirgan edi o‘shanda. Keyinroq shayxi Xudoiy

tomonga egilib, uning qulog'iga “Bolam, hammasidan ham sen olib kelgan chechakni ko‘proq sevdim”, degan, Xudoiyining sevinchidan boshi osmonga yetgan edi. Xudoiy ham boshida nafsni quli bo‘lgan va keyinchalik Uftodaning maslahati bilan nafsdan qutilishga harakat qilgan. Xudoiy boshida qozi bo‘lgan Uftoda unga shunday degan agar sen Alloh yo‘liga qaytmoqchi bo‘lsang bor mol-mulkingdan voz kechishing kerak deb Xudoiy afandi hammasiga rozi bo‘lgan va qozi lavozimidan ketgan va Uftoda Xudoiyga bozorlarda jigar sotasan degan boshida Xudoiy buni xohlamadi lekin rozi bo‘ldi va jigar sotmoqchi bo‘lib bozorga borganida jigar sotib yurgan Xudoiyi ko‘rib xalq Xudoiyi aqildan ozgan deb o‘ylashgan lekin Xudoiy nafsni yengib hech kimni gaplariga quloq solmasdan Allohning yo‘liga qaytishga harakat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Islomda nafsni tarbiya qilish, uni to‘g‘ri yo‘lda rivojlantirish, o‘zini tutish va qalbni poklash juda muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘lda sabr, zikr, ibodatlar va yaxshi amallar orqali nafsni poklash va uni xolis yo‘lda yo‘naltirishga intilish zarur.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ "ИННОВАЦИОННОЙ ДЫМОВОЙ ТРУБЫ" В ГАЗОТУРБИННЫХ ЦЕХАХ

Хурсанов Файзулложон Саъдулла угли

Филиал Федерального государственного автономного образовательного учреждения высшего образования Национального исследовательского ядерного университета "МИФИ" в г. Ташкенте.

***Аннотация:** В современных газовых турбинах особое внимание уделяется экономике, меньшему расходу газа и меньшему ущербу экологии. Однако большое количество тепловой энергии выбрасывается в экологию через их дымовые трубы. Это приводит к большим потерям энергии и глобальному потеплению воздуха. Для решения этой проблемы полезно направлять теряемую энергию на различные цели. Предложение заключается в установке теплообменника на пути большого высокотемпературного воздушного потока, использование полученной из него энергии для обогрева, и хозяйственных целей. Исходя из этого, снижаются большие потери энергии и ущерб окружающей среде.*